

Shohlik qismati va shoirlik taqdiri



Universitetimizda 14-fevral kuni GIM fakulteti tashkilotchiligida Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 539 yilligiga bag'ishlab "Yoshlar kamolotida Bobur merosining o'rni va ahamiyati" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirni universitet yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori R. Choriyev kirish so'zi bilan ochdi. R. Jumaniyozov moderatorligida o'tgan tadbirda so'z olgan mehmon shoir Bobur Bobomurod Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va ijodi haqida ma'ruza qilib, ishtirokchilarga Bobur shaxsiyati nechog'lik buyuk ekanligini ta'kidlab o'tdi. Bo'lib o'tgan tadbirda institutning professor-o'qituvchilari, talabalar tomonidan Bobur she'riyati asosida yaratilgan qo'shiqlar ijro qilinib, g'azallaridan namunalar o'qildi.



Ushbu tadbirdan maqsad: buyuk allomalarimiz, xususan Bobur ijodini keng miqyosda o'qitish, o'rgatish, yubiley sanalarini nishonlash va yod etish jarayonida buyuk ajdodlarimizning asarlarini manbalar va qo'lyozmalar asosida o'rganish va ularning mazmun mohiyatida nechog'liq Vatanga muhabbat, ota-onaga e'tibor, insonlarga bo'lgan munosabat, yurt ravnaqi uchun qanday xizmat qilish va umuman komil inson darajasiga yetishish mumkin bo'ladigan jihatlarga ko'proq e'tibor berishni yoshlar ongiga singdirishdir. Shu asnoda yoshlarimizda faxr-g'urur tuyg'ularini shakllantirish, ularga o'xshashga intilish, qalbida havas va ishtiyoq uyg'otish, ajdodlarga munosib bo'lishga harakat qildirish maqsadga muvofiqdir. Boburning qismatida shohlik va shoirlik nisbati yozilgan. U dam qo'lga qilich, dam qalam ushlab umrguzaronlik etdi. Uning hayotiy va ijodiy faoliyatida vatanparvarlik, yoru diyorga bo'lgan qaynoq mehru muhabbat hamda ilmparvarlik tuyg'usi ustuvor bo'lgan.

